
Raisning tashabbusi bilan nochor oilaga yangi uy qurib berilmoqda

???? Xalqimizning ezgu qadriyatlari ko'plab o'ksik qalblarga shodumonlik ulashmoqda. Qiynalganlarga ko'mak berish, ko'nglini ko'tarish, og'ir damlarda suyanchiq bo'lish xalqimizga xos fazilatlardan. Bu qadim an'nalar keyingi yillarda yanada quloch yoymoqda, yangi tashabbuslar, saxovatli amallar qo'llab-quvvatlanyapti.

* "Qoshqayron" MFY raisi Dilmurod Hamraev tashabbusi bilan ushbu mahallada yashovchi ehtiyojmand oilalardan biri bo'lgan Baxtiyorjon Ahmedovga har tomonlama qulaylikka ega bo'lgan yangi uy qurib berilmoqda. Bundan ikki oy oldin kuchli yomg'ir yog'ishi oqibatida ushbu fuqaroning uyi ayanchli avholga kelib qolgandi. MFY raisi tashabbusiga ko'ra, ushbu oilani ijtimoiy-moddiy qo'llab-quvvatlash uchun xayr-sahovat mablag'lari va hashar yo'li orqali uy qurib berish fikri paydo bo'ldi.

☞ Tabiiyki, mazkur tashabbus mahallada yashovchi saxovatli insonlar tomonidan to'liq qo'llab-quvvatlandi va barcha qulayliklarni o'zida mujassam etgan uy loyihasi tayyorlandi. Shundan keyin xayr-sahovat mablag'lari va hashar yo'li orqali uy qurilish ishlari olib borilib, tuman hokimligi, mahalla ahli va xomiylarning yordami bilan yangi uy qurib berilmoqda.

???? - Qurilish ishlarini mahalliy ustalarimiz olib borishmoqda, - deydi "Qoshqayron" MFY raisi. - Mahallamizning tajribali quruvchilari beton quyish, uy devorini ko'tarish, tomning ustini yopish, polpatolok qoqish, eshik va deraza romlarini o'rnatish ishlarini olib borishdi. Natijada, mahallamizda chiroyli uy qad ko'tarmoqda.

???? - Bunday ko'makdan boshimiz osmonga yetdi, - deydi uy egasi Baxtiyorjon Ahmedov quvonchini yashiraolmay. -"Mahallang - ota-onang" deb bejiz aytilmagan ekan. Mahallamiz raisi boshliq mahalla faollari, bizga yordam qo'lini cho'zgan mahalladoshlarimiz va ayniqsa tumanimiz rahbarlaridan cheksiz minnatdormiz. Beg'ubor zamonda shunday bag'ri keng insonlar orasida baxtli yashayotganimizdan mamnunmiz.

2023-01-10 13:41:49